

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN XIRURGIYA
VA REANIMATSIYADA HAMSHIRALIK ISHI FANIDAN MALAKA
SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN XIRURGIYA VA REANIMATSIYADA HAMSHIRALIK ISHI FANIDAN MALAKA SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Xirurgiya va reanimatsiyada hamshiralik ishi talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

1.Xirurgiya va reanimatsiyada hamshiralik ishi

- 1.Xirurgiyada infeksiya tushishining oldini olish. Aseptika;
- 2.Xirurgiyada infeksiya tushishining oldini olish. Antiseptika;
- 3.Desmurgiya;
- 4.Qon ketish sindromi. Qon ketishini to‘xtatish usullari;
- 5.Infuziya va transfuziya;
- 6.Operatsiyadan oldingi va operatsiyadan keyingi davrlar;
7. Shikastlanish sindromi. Suyaklar sinishi va chiqiqlar. Kuyish,sovuq olish va elektrotravmalar;
- 8.Yallig‘lanish sindromi. Mahalliy va umumiy xirurgik infeksiya. O‘tkir anaerob infeksiya;
- 9.“O‘tkir qorin og‘rig‘i” sindromi. Ovqat hazm qilish a'zolarining xirurgik kasalliklari. Qorin bo‘shlig‘i a’zolarining yallig‘lanish kasalliklari. Ovqat hazm qilish a'zolarining destruktiv kasalliklari;
- 10 Siydik ajratib chiqarish faoliyatining buzilishi sindromi.
- 11.O‘smalar sindromi.
- 12.Terminal holatlar;
- 13.O‘tkir nafas yetishmovchiligida reanimatsiya va intensiv davolash;

14.O‘tkir yurak qon-tomir yetishmovchiligida reanimatsiya va intensiv davolash;

15.Koma va shok holatlarida reanimatsiya va intensiv davolash.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1. Xirurgiya			
1.1.	Xirurgiyada infeksiya tushishining oldini olish. Aseptika.	Kasalxona ichidagi infeksiya tushunchasini bilish va farqlashi, aseptika va antiseptika tushunchalarini bilishi va farqlay olishi xirurgik asboblarni ishlatish, zararsizlantirish, ularni sterilizatsiyaga tayyorlashni bilishi va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, qo‘lni yuqumsizlantirish usullarini, bog‘lov ashyolarini tayyorlashni, bikslarga joylash usullarini, bog‘lov va operatsiya xonalarini tozalash usullarini bilishi va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, tibbiyotda ishlatiladigan asosiy antiseptik dori-darmonlarni, operatsiyadan oldin qo‘lni tozalash usullarini, steril xalat va steril rezina qo‘lqoplarni kiyishni, steril stol tayyorlashni, dez.eritmalarni qo‘llash va tayyorlashni, ishlatilgan jihozlarni SSVni buyrug‘i asosida zararsizlantirishni bilishi va ko‘nikmalarga ega bo‘lish.	2 ta
1.2.	Xirurgiyada infeksiya tushishining oldini olish. Antiseptika.	Tibbiyotda ishlatiladigan asosiy antiseptik dori-darmonlarni, operatsiyadan oldin qo‘lni tozalash usullarini, steril xalat va steril rezina qo‘lqoplarni kiyishni, steril stol tayyorlashni, dez.eritmalarni qo‘llash va tayyorlashni, ishlatilgan jihozlarni SSVni buyrug‘i asosida zararsizlantirishni bilishi va ko‘nikmalarga ega bo‘lish.	2 ta
1.3.	Desmurgiya.	Desmurgiya tushunchasini bilishi, farqlashi. Bog‘lam turlarini, bog‘lamlar qo‘yishning umumiy qoidalarini, tananing turli sohalariga bintli, durrachali bog‘lamlar qo‘yishni, leykoplastirli va gipsli bog‘lam qo‘yishni bilishi va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi,	2 ta
1.4	Qon ketish sindromi. Qon	qon ketish tushunchasi, tasnifini bilishi va farqlashi. O‘tkir qon yo‘qotishning belgilari va darajalarini, qon	2 ta

	ketishini to'xtatish usullari	ketishni vaqtincha va batamom to'xtatish usullarini, turli etiologiyadagi qon ketishlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni, qon ketishida uchraydigan asoratlari va birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni bilishi va ko'nikmalarga ega bo'lishi. Gemostatik dori-darmonlarni bilishi va farqlashi, Qon yo'qotgan bemorlarning ahvolini baholashni bilishi va ko'nikmalarga ega bo'lishi.	
1.5	Infuziya va transfuziya	Qon quyish tarixini bilishi. Donorlik, infuzion va transfuzion terapiyani bilishi va farqlashi agglyutinatsiya, qon guruhi va Rh faktor haqida tushunchalarni biladi va farqlashi ularni aniqlash usullarini bilishi va ko'nikmalarga ega bo'lishi, qon quyishga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalarni bilishi va farqlashi, qon quyishning bevosita va bilvosita usullarini, qonni quyishga yaroqliligini aniqlashni, qon quyish texnikasi, uchraydigan xatoliklar va asoratlarni, infuzion terapiyada qo'llaniladigan suyuqliklar tasnifini, qon guruhini standart zardoblar yordamida aniqlashni, rezus faktorni ekspress usul bilan aniqlashni, donor qoni bilan retsipyent qonining mos kelish sinamalarini aniqlashni, qon quyishni, bemor ahvolini klinik baholashni bilishi va ko'nikmalarga ega bo'lishi.	3 ta
1.6	Operatsiyadan oldingi va Operatsiyadan keyingi davrlar .	Operatsiyadan oldingi davr va keyingi davr tushunchasini bilishi, farqlay olishi. Rejali va shoshilinch operatsiyalarga ko'rsatmalarni bilishi, farqlay olishi. Bemorlarni rejali operatsiyaga tayyorlashni, operatsiyadan oldin qo'lni yuqumsizlantirishni, operatsiya maydonini yuqumsizlantirishni, predikatsiya o'tkazishni, bemorlarni turli instrumental tekshiruvlarga tayyorlashni bilishi va ko'nikmalarga ega bo'lishi. Operatsiyadan keyingi davrdagi asoratlarni, bemorlarni operatsiya xonasidan palataga tashishni, operatsiyadan keyingi davrda uchraydigan asoratlarni, operatsiyadan keyingi davrda bemor	4 ta

		<p>holatiga baho berish va parvarishlashni bilishi va ko'nikmalarga ega bo'lishi .</p> <p>Operatsiya jarohatini mahalliy davolash, bog'lamlarni yangilash, drenajlarni tozalashni bilishi va ko'nikmalarga ega bo'lishi.</p>	
1.7	<p>Shikastlanish sindromi. Suyaklar sinishi va chiqiqlar. Kuyish, sovuq olish va elektrotravmalar.</p>	<p>Shikastlanish tushunchasi va shikastlar tasnifini bilishi, farqlay olishi. Shikastlar: simptomatikasi, tekshirish va davolash usullari, oldini olishni bilishi va ko'nikmalarga ega bo'lishi yumshoq, to'qimalarning yopiq, shikastlari.</p> <p>Kalla miya shikastlari. Suyaklar chiqishi. Suyaklar sinishi. Ko'krak qafasi shikastlari. Shikastlangan bemorga birinchi yordam ko'rsatish. Transport shinalarini qo'llash. Bemorni transportirovka qilish xususiyatlari bilishi va ko'nikmalarga ega bo'lishi .</p> <p>Sovuq olish va kuyish tushunchalarini bilishi. Sovuq olish va kuyishning darajalarini bilishi. Kuyish maydonini aniqlashni bilishi va ko'nikmalarga ega bo'lishi.</p>	4ta
1.8	<p>Yallig'lanish sindromi. Mahalliy va umumiy xirurgik infeksiya. O'tkir anaerob infeksiya.</p>	<p>Jarrohlik infeksiyasi tushunchasi, tasnifini bilishi va farqlay olishi. Yallig'lanish belgilari bilan kuzatiladigan xirurgik kasalliklar, o'tkir anaerob infeksiya turlarini bilishi. Yiringli bo'shliqlarni drenajlashni, anaerob infeksiyali bemorlarda bog'lamlarini yangilashni, drenaj orqali bo'shliqlarni yuvish va dorilarni yuborishni, toza va yiringli jarohlarga xirurgik ishlov berishni, qoqsholga qarshi emlashni bilishi va ko'nikmalarga ega bo'lishi.</p>	4 ta
1.9	<p>«O'tkir qorin og'rig'i» sindromi. Ovqat hazm qilish a'zolarining xirurgik kasalliklari. Qorin bo'shlig'i a'zolarining yallig'lanish kasalliklari. Ovqat hazm qilish</p>	<p>«O'tkir qorin og'rig'i» sindromi tushunchasi, uni keltirib chiqaruvchi sabablarini bilishi. Bemorlarni instrumental tekshirish usullarini bilishi va ko'nikmalarga ega bo'lishi.</p> <p>Qorin bo'shlig'i a'zolari patologiyasida bemorlarga 1-tibbiy yordam ko'rsatishni bilishi va ko'nikmalarga ega bo'lishi.</p> <p>Peritonit, to'g'ri ichak kasalliklari sabablari, klinik alomatlari, tashxis otini bemorlarni shoshilinch operatsiyaga tayyorlashni, bog'lamlarni yangilashni, drenaj, mikro irrigatorni ishlatishni, toza va yiringli</p>	5 ta

	a'zolarining destruktiv kasalliklari.	jarohatlarga xirurgik ishlov berishni bilishi, farqlashi va amaliyotda qo'llay olishi. Operatsiyadan keyingi davrda bemor holatiga baho berish va parvarishlashni, bemorlarni nazogastral zond orqali va parentral ovqatlantirishni, laparotomiya uchun asboblarni yig'indisini yig'ishni, laparoskop, endoskop, rektoskop, rektomanoskoplarni ishga tayyorlashni bilishi, farqlashi va ko'nikmalarga ega bo'lishi.	
1.10	Siydik ajratib chiqarish faoliyatining buzilishi sindromi.	Siydik ajratib chiqarish a'zolari kasalliklarning asosiy simptomlarini, tekshirish usullarini (laborator, instrumental) bilishi, farqlashi va amaliyotda qo'llay olishi. Gemodializ. Prostata bezi kasalliklari sabablari, klinik belgilari, diagnostika usullari va davolash, o'tkir siydik tutilishi — sabablari, klinik belgilarini, tashhisoti, 1-yordam davolash usullari, parvarishlash, oldini olishni biladi, farqlaydi va amaliyotda qo'llay olishni. Qovuqni yuvish va kateterizatsiyasini o'tkazishni bilishi, farqlashi va ko'nikmalarga ega bo'lishi.	2 ta
1.11	O'smalar sindromi.	O'smalar tasnifi. O'sma kasalligining kelib chiqish sabablari. Xavfli va xavfsiz o'smalar. O'smalarni davolash usullari.	2 ta
1.12	Terminal holatlar.	Terminal holat sabablarini, bosqichlari (aganalold, terminal pauza, aganal, klinik va biologik o'lim) klinik belgilarini bilishi. Klinik va biologik o'lim belgilarini farqlashi, Beloglazov belgisi, bemorlarning qon bosimi, pulsi, nafas olish soni, tana haroratini o'lchash va ko'z qorachig'ining yorug'likga reaksiyasini aniqlashni, havo o'tkazgichlardan foydalanishni bilishi, farqlashi va amaliyotda qo'llashi.	2 ta
1.13	O'tkir nafas yetishmovchiligida reanimatsiya va intensiv davolash;	O'tkir nafas yetishmovchiligi kelib chiqishi sabablari va klinikasi. Astmatik status va bronxial astma. Klinik belgilari, davolash usullari. O'pka shishi kelib chiqishi sabablari va klinikasi, davolash. Nafas yo'llariga yot jism tushishi, klinikasi, davosi. Traxeostomiya to'g'risida tushuncha.	2 ta
1.14	O'tkir yurak qon-tomir	Yurak qon -tomir tizimi anatomiyasi va fiziologiyasini, o'tkir va surunkali yurak yetishmovchiligi sabablarini, klinik formalari va	2 ta

	yetishmovchiligida reanimatsiya va intensiv	belgilarini, o'tkir o'ng qorincha yetishmovchiligi, arterial gipertoniya, gipertonik krizlar, miokard infarkti, stenokardiya, o'tkir miokardit, og'ir aritmiyalar (qorincha fibrillyatsiyasi, paroksizmal taxikardiya, Aritmiyalar. O'tkir yurak yetishmovchiligida kompensatsiya va dekompensatsiya bosqichlari. O'pka shishi Defibrillyatsiya haqida tushunchani, Defibrillyatorni qo'llash prinsipi va ko'rsatmalari, defibrillyatorni ishga tayyorlashni bilishi, farqlashi va amaliyotda qo'llash. Pulsni aniqlash va arterial bosimni o'lchashni, EKG o'tkazishni, Yurakni eshitish nuqtalarini. Bemorlar holatini kardiomonitorida kuzatishni, o'tkir yurak tomir yetishmovchiligida reanimatsiya va intensiv terapiya choralarini, yurak to'xtaganda reanimatsiya. Ishlatilgan jihozlarni dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish hamda utilizatsiya qilishni ko'nikmalarga ega bo'lishi.	
1.15	Koma va shok holatlarida reanimatsiya va intensiv davolash.	Shok haqida tushunchani, Shok turlarini, shok sabablariga ko'ra klinik manzarasini, turli etiologiyali shoklarda (anafilaktik shok, kardiogen shok, travmatik shok, gipovolemik, septik va infeksiyon – toksik shoklar, kuyish shoki, gemoragik, Gemotransfuzion shok, sitratli shok, pirogen shok, kechiktirib bo'lmaydigan yordam, reanimatsiya va intensiv terapiya xususiyatlarini bilishi va ko'nikmalarga ega bo'lishi. Shok holatidagi bemorlarni parvarish qilish xususiyatlari, qon bosimi, puls, nafas olish tezligini o'lchashni; shokda kechiktirib bo'lmaydigan yordam tadbirlarini o'tkazishni; gemodinamik varaqani to'ldirishni bilishi, farqlashi va ko'nikmalarga ega bo'lishi .	2 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %

2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Hamrayev A.J., Hamedova M.A. Xirurgiya. Toshkent. "O'qituvchi" nashriyoti. 2002 yil

2. Hamraev A.J. Xirurgiya va reanimatsiya asoslari – "Zar qalam" nashriyoti 2008 yil.

3. Bekmurodova M. Jarrohlik va reanimatsiya asoslarida hamshiralik ishi. Toshkent 2005 yil.

4. Normuradova G. Xujamuradov G. S.Ruziboyev "Xirurgiya" "Nurli qalblar" nashriyoti 2024 yil.

5. Sh.E.Hamroyeva. “Anesteziologiya va reanimatsiya asoslari” “Nurli qalblar” nashriyoti 2024 yil.

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*